UO‘K: 821.512.133.09-31:17

MILLIY UYG‘ONISH PEDAGOGIKASI TARAQQIYOTIDA BOLALAR ADABIYOTINING O‘RNI

X.K. Xamrakulova

Maqolada o‘zbek bolalar adabiyotining fan bo‘lib shakllanishida milliy uyg‘onish davr pedagogikasining ko‘rsatgan ta’siri, o‘tgan asr boshlarida yaratilgan dastlabki alifbo va darsliklarda bolalar adabiyotiga oid asarlarning berilishi, dastlabki badiiy matnlarning aksari tarjima asalardan iborat bo‘lganiga qaramay, pirovardida milliy pedagoglarimiz tomonidan yaratilgan mustaqil tarzdagi kichik badiiy matnlarda bolalar tarbiyasi va ta‘limiga oid bo‘lgan didaktik materiallar keng o‘rin olganligi kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *bolalar adabiyoti, milliy pedagogika, jadid adabiyoti, darslik, alifbo, o‘qitish tizimi, didaktik asar, hikoya, badiiy matn, “Mevalar mojarosi”.*

В статье рассмотрены влияние педагогики эпохи национального возрождения на становление узбекской детской литературы как науки, рассмотрены вопросы размещения в первых азбуках и учебниках, созданных в начале прошлого века, произведений детской литературы; раскрыто, что если вначале большинство художественных текстов составляли переводные произведения, то в дальнейшем широкое место стало отводиться дидактическим материалам по воспитанию и образованию детей в форме небольших художественных текстов, созданным национальными педагогами.

Ключевые слова: *детская литература, национальная педагогика, джадидская литература, учебник, азбука, система обучения, дидактическое произведение, рассказ, художественный текст, “Приключение фруктов”.*

Kirish

Bolalar adabiyotining maktab darsliklaridan joy olganiga bir asrdan ziyod vaqt o‘tdi, o‘quv fani sifatida shakllanib o‘qitila boshlaganiga ham ko‘p yillar bo‘ldi. Ma’lumki, bolalar adabiyotida didaktika hamma vaqt asosiy yo‘nalish bo‘lib kelgan. Albatta, Sharqning va milliy adabiyotning sara asarlaridan oziqlangan bolalar adabiyoti uchun didaktikaning ustuvorligi tabiiydir. Bu, ayniqsa, milliy uyg‘onish davri pedagogikasida bolalar adabiyotini yoritishda asosiy mezon bo‘lib qoldi.

Negaki, bolalar adabiyotidagi matnlarning bola yoshiga mos bo‘lishi, yYengil o‘zlashtirilishi, matn qatidagi ma‘noning bo‘rtib turishi, syujet rivojida birozgina kinoyaviy ruh mavjudligi, bu ruhning asarga kulgi baxsh etishi yoxud asarni bola ko‘z o‘ngida jonli namoyish qilishga xizmat qilishi (yakunda kinoya matndan chiqarilgan xulosani tasdiqlashi lozim), obrazlarni qiyoslash bola ixtiyoriga havola qilinishi, chiqarilgan xulosa ongda jonlangan voqelikka mos kelishi ularning tasavvurini boyitish va tafakkurini kengaytirish imkonini bergan. Albatta, bolalar adabiyotiga qo‘yilgan talablar kichik matn zamiriga singib ketadi. Buni chuqur anglagan jadid pedagoglari dastlabki darsliklariga ijodiy matnlarning kiritilishiga e’tibor qaratdilar. Bolaning kelajakda kim bo‘lib kamolga yetishuvi bolalar adabiyotining unga ko‘rsatgan ta’siri bilan o‘lchanadi. Shuning uchun bolalarga yoziladigan asarlar kattalarga yoziladigan asarlardan ko‘ra qiyinroq, bolalar ijodkorlarining mas’uliyati ikki hissa kattaroqdir.

Material va metodlar

Ushbu maqolani yozishda Yo‘ldosh Abdullayevning “Eski maktabda xat-savodga o‘rgatish”, Ulug‘bek Dolimovning “Turkistonda jadid maktablari”, Mo‘min Fattayevning “Atoqli pedagoglarimiz” kabi ilmiy kitoblarida keltirilgan dastlabki alifbo va darsliklarga oid badiiy matnlar, Munavvarqorining “Adib us soniy”, Avloniyining “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitoblari, Hamzaning “Yengil adabiyot” “O‘qish kitobi”dagi bolalarbop

matnlar, Hamzaning “Tanlangan asarlar” IV jildiga kirgan “Mevalar mojarosi” she‘rlari tahlil qilingan. Tahlilda qiyosiy tipologik, sotsiologik va stilistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Natijalar va ularning tahlili

Yangi usul maktablarida tez savod chiqarish usuli maddiya, ayniqsa, usuli savtiya metodi orqali amalga oshirilgach, bolalarning matnlarni sidirg‘asiga o‘qib tushunish va qayta hikoya qilish, shu asnoda yangi matnlar tuzishlari uchun kichik matnlarga zaruriyat sezilgan. Avvaliga rus-tuzem maktablari darsliklaridan ijodiy foydalangan metodistlar keyinroq mustaqil tarzda o‘qish kitoblarini yaratdilar. Har bir darslik muayyan mavzular asosidagi matnlar bilan boyitildi. E’tiborlisi, bu matnlarning aksari milliy turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz asosida yaratildi. Izlanishlar tezda o‘zining samarasini berdi, ammo pirovardida millat o‘rtasida ham ikkiga bo‘linish yuzaga keldi. Ya‘ni “qadimchi”lar (eski maktab tizimini targ‘ib qiluvchilar) va jadid pedagoglari o‘rtasida kechgan janglar siyosiy tus oldi, jadidlar faoliyati hukmron mafkuraga tahdid soldi. Garchi mavjud hokimiyat usuli jadid maktablariga yon berishga majbur bo‘lsa ham, yangi usul maktablari ming mashaqqatlar bilan faoliyatini davom ettirdilar. Keyinroq bu faoliyatga ham batamom chek qo‘yildi. Shunga qaramay, jadidlar millatning tafakkur o‘zanini yangi sarhadlarga burib yubordi.

Ta‘limning isloh qilinishiga sabab bo‘lgan eski maktab tizimi bir qator noqulayliklarga ega edi. Yo‘ldosh Abdullayevning “Eski maktablarda xat-savodga o‘rgatish” nomli kitobida yozilishicha, maktabda asosiy darsliklar “Haftiyak” va Chor kitob”dan iborat bo‘lib, dastlabki savod chiqarilgach, matnlar mazmuni tushuntirilmay yodlatilgan. Bir so‘z bilan aytganda, diniy kitoblardan ta‘lim olishga qaratilgan eski maktablarda dunyoviy savodxonlikka e’tibor berilmagan [1. B. 53].

O‘z-o‘zidan bolalar adabiyotiga oid manbalarni o‘qitish eski maktablarda ko‘zda tutilmagan. Bu yerda bola shaxsini rivojlantirish, uning tafakkur va tasavvurini kengaytirishga qaratilgan badiiy matnlar haqida gap ham bo‘lmagan. Savodga o‘rgatishning hijo metodi, notanish tildagi asarlarni quruq yodlatish amaliyoti ta‘limni jiddiy isloh etishni talab qilar edi.

Jadid pedagogikasida bolalarni muayyan bir vazifaga da’vat etuvchi pand-nasihat mavzusidagi asarlar asosiy o‘rin tutgan. Bolalar adabiyotining tadqiqotchisi Rahmatilla Barakayev to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, “o‘zbek bolalar she‘riyatining har bir davrdagi mavzu ko‘lami muayyan davr xususiyati bilan belgilanib, asosan, o‘sha davr uchun dolzarb bo‘lgan mavzularni qamrab oladi” [2. B. 148]. Sharqona qadriyatlarga asoslangan didaktik ruhdagi asarlarning o‘tgan asr boshi bolalar adabiyotiga xos xususiyat bo‘lgani tabiiydir. Uzoq asrlar mobaynida xalq sevib o‘qigan “Guliston”, “Bo‘ston”, “Qobusnoma”, “Kalila va Dimna”, “Gulzor”, “Zarbulmasal” kabi asarlardan oziqlangan millat tafakkuri o‘z-o‘zini taftish qiluvchi, o‘zini kashf etishga qaratilgan keng asarlarni emas, aynan yangi usul darsliklarida berilgan hikoyatlar, masal, hikmatlarni oson qabul qilgan. Shu o‘rinda aytish kerakki rus tuzem maktablarining o‘zbek sinflarida Sa’diyning “Guliston va “Bo‘ston” asarlaridan ham foydalanilgan. Pand-nasihat mavzusi yetakchilik qilgan asarlarda muallif shaxsi asosiy o‘rin tutadi. Bunday asarlarda bolalik olami bo‘rtib turuvchi psixologik jihatlarga, bolaning qiziqishlari, uning tafakkuri va tasavvuriga urg‘u berilmaydi. Hikoyachi yetakchi mavqeda turadi. Natijada badiiy matn bolaga bir tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Ya‘ni bunda tashqi ta’sir sezilarli oshadi. Bu tipdagi asarlarda ham g‘oyadan kelib chiquvchi xulosalar asosiy o‘rin egallaydi. Shunga qaramay, o‘tgan asr boshi millat tafakkurini yangilash uchun bu kabi asarlarning jasorat bilan darsliklarga tatbiq qilinishi katta voqelik hisoblangan. Bolalarning yoshi va saviyasini hisobga olib yaratilgan bolalar adabiyoti usuli jadid maktablari uchun yaratilgan darslik va qo‘llanmalardan boshlangan.

Tovush metodidagi ilk kitob S.Saidazizovning “Ustodi avval” kitobidir. Manbalarda kitob 1900 yilda nashr qilingani, uning muvaffaqiyati muallifning rus-tuzem maktabida o‘qigani va shu yerda o‘zbekcha sinfda muallim bo‘lib ishlagani, S.M.Grameniskiy darsliklari bilan tanish bo‘lgani bilan belgilanadi. Shaxsan S.M.Gramenitskiy unga rus-tuzem maktablarining o‘zbekcha sinflari uchun alifbo kitobini yozishni topshiradi. Uning tashabbusi bilan “Ustodi avval” 3000 nusxada bosib tarqatiladi.

Yangi zamon bolalar adabiyotining shakllanishiga aynan shu kitob sabab bo‘ldi. Ilk o‘zbek alifbosi hisoblangan “Ustodi avval”ning 1903 yildagi 2-nashrida “Tulki birla echki”, “Yo‘lbars birla sichqon”, “Bo‘ri birla laylak”, “Tulki birla xo‘roz”, “Tulki birla laylak”, “Pashsha birla ari”, “Ayiq birla qishloqi”, “Bo‘ri birla echki”, “Qurbaqa birla ho‘kiz”, “Bola va otasi” kabi tarjima matnlar berilganiga qaramay, mana shu asarlar orqali bolalar yoshi, ruhiyati, qiziqishlarining inobatga olingani “Ustodi avval”ning bolalar adabiyotini shakllantirishdagi muhim bosqich bo‘lganini ko‘rsatadi.

“Ustodi avval”ning birinchi bo‘limi hisoblangan alifbe davri yakunlangach, keyingi bo‘limlarda bilimga targ‘ib qilish va tarbiya xususidagi “Dunyoning yorug‘ligi ilm birla. Ilmsiz aql – engsiz kiyim. Ko‘p bil, oz so‘zla. O‘ylamay so‘zlagan og‘rimay o‘lur. Tilingni saqla o‘zingni chaqmasun. Birovni g‘iybat qilmoq gunohlar kattasidur. Nodon so‘zig‘a sukut javobdur. Avval o‘yla keyin so‘yla” kabi maqollar, didaktik ruhdagi she‘r va hikoyalar berilgan.

Ilk alifbolarni maxsus o‘rgangan Y.Abdullayev “Ustodi avval”da bola tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mavzular kiritilganiga e’tibor beradi. Keltirilgan hikoyalar ulardagi xulosani asoslashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ayrim hikoyalar xulosani kulgi orqali tasdiqlashga, boshqalari esa, bolani mantiqan o‘ylashga yo‘naltirgan. Masalan, “Ustodi avval”ning 36-betidagi “Bir bola bir kun o‘zining bir o‘rtog‘ining ko‘chasidin o‘tganda, oning darvozasig‘a “eshak” degan so‘zni yozib ketibdur. Ul xatni ul o‘rtog‘i ko‘rub, ul bolag‘a aytibdur: “O‘rtog‘jon, siz borganingizda, man uyda yo‘q ekanman. Darvozag‘a nomingizni yozub ketgan ekansiz. Ko‘rub o‘zum siz borganingizda yo‘qlig‘img‘a xiyla afsus qildim”, – debdur. Ma’lum bo‘ladurkim, behuda so‘zni yozgan kishi yomon uyalur” [1. B. 109]. Hikoya qisqa, ammo unda kulgi tug‘diruvchi o‘rinlar bolaning bir umr esidan chiqmaydi va xulosaning o‘rinli ekanini chuqur anglashiga imkon beradi. “Zuluk birla ilon” hikoyasida muallif bolaga ta’sir qilishning boshqa shakliga murojaat qiladi. Ya‘ni hikoya she‘riy yo‘lda berilgani bilan o‘ziga xos ohangga va ta’sir doirasiga ega. Ikkinchidan, “Har kima xushfe’l kerak har zamon” xulosasini chiqarish uchun jiddiy asoslov kerak bo‘ladi.

Bir kuni jam o‘ldi zuluk ham ilon,
Bir-birig‘a do‘stlig‘ aylab ayon.
Onda ilon aydi zulukg‘a boqib
Bir necha rozi dilin aylay bayon;
Manga taajjuyu ko‘rinur ikki ish:
Ko‘rsa mani xalq qochar har qayon;
Sanga ajab rahmu muruvvat qilib,
Bergay alar o‘z tanidin toza qon.
Ko‘rsa sani har nechuk odam agar,
Yaxshi tutub tabiya qilg‘on hamon.
Gar mani bir ko‘rsa qochib avvalo,
Fursat agar topsa urar begumon.
Xolbulkim: har ikkimiz kasbimiz
Tishlamoq erdi badani ahlijon.
Onda zuluk boqdi ilon sarig‘a,
Aydi, birodar, bu nachuk doston?
Manki mariz ahlig‘a yordam uchun
Jonimi qurbon qiluram har zamon.
Sog‘u salomat ham agar bir badan
Uchrasa qilg‘aysan anga bir ziyon.
Bir nechani zahar solib o‘ldurib,
Barchalar etgay alamingdan fig‘on.
Xalq so‘zudur mani doru demak,
Toshu muloyimsanu zahring nihon.
Onda ilon sharm qilib fe’lidin,
Muztarb o‘ldi biling ahli jahon.
Bilsa bo‘lur bul so‘zi ma‘nosidin:
Har kima xushfe’l kerak har zamon [1. B. 44.]

S.M.Gramenitskiy o‘qish kitoblaridan tarjima qilingan asarlarning “Ustodi avval”da berilishi, bir tomondan, syujetlarning bolalarbopligi, didaktikaning bo‘rtiqligi, xulosaning aniq va lo‘nda ekanligi bilan, ikkinchi tomondan milliy alifbolarning nashri masalasida rus adiblaridan olingan asarlarning ahamiyati katta bo‘lgani bilan belgilanadi. Bu holatni Muhammadrasul Rasuliyning “Bolalar bog‘chasi” Muhammadamin ibn Muhammadkarimhojining “Rahbari avval” kitoblarida ham uchratish mumkin. Alifbo va o‘qish kitoblari muallimlarining rus-tuzem maktablarida dars bergani, o‘sha yerdagi muhitni yaxshi bilgani ham qaysidir darajada bolalarbop asarlarning tarjimalaridan keng foydalanganiga sabab bo‘lgan. Masalan, Ali Asqar Kalininning 12 bobdan iborat “Muallimi soniy” asari boshlang‘ich sinflarning 3–4-bo‘limlari uchun mo‘ljallangan. Bu asardagi badiiy matnlarning aksari S.M.Gramenitskiy o‘qish kitoblaridagi badiiy matnlarning tarjimasidan iboratligi ham, avvalo, shu davrda bolalarga maxsus mo‘ljallan-

gan asarlarning bo‘lmagani va tarjima qilingan asarlarning aynan bolalarbopligi bilan belgilansa, xato bo‘lmas. Shuningdek, dastlabki darslik kitoblarining chop qilinish taqdiri rus arboblariga bog‘liq bo‘lib turganda shu yo‘l bilan millat ta‘limiga hissa qo‘shish ham katta jasorat edi. Shunga qaramay, Y.Abdullayev Ali Asqar Kalininning “Muallimi soniy” asari V.R.Nalivkinning “Terma kitob”iga teng emasligi, “Terma kitob”da o‘zbekcha maqol, masal, latifa, topishmoqlar, Mashrab, Shavqiy Namangoniy kabi shoirlarning asarlari hamda “Boburnoma”dan ayrim parchalar (Farg‘ona viloyati haqida) kiritilgani holda Ali Asqar Kalinin bir necha o‘zbek latifalari bilan cheklangani, bu esa uning o‘zbek og‘zaki va yozma adabiyoti, adabiy tilini puxta bilmagani oqibati ekanligini ta‘kidlaydi [1. B. 120].

Ilk alifbo va kitoblar nafaqat o‘zbek , balki tojik tilida ham chiqa boshlagan. Samarqand va Buxorodagi ijtimoiy sharoit shuni talab qilgan. Tojik tilidagi ana shunday kitoblardan biri 1907, 1911 yillarda Abduqodir Shakuriy tomonidan boshlang‘ich maktabning ikkinchi sinfi uchun xrestomatiya sifatida tuzilgan “Jomeul-hikoyat” (“Hikoyalar to‘plami”) kitobidir. Bu muallifning maktab o‘quvchilari uchun tuzgan ikkinchi kitobidir (birinchisi “Rahnamoi savod” (“Savod chiqarish rahbari”) – so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib o‘qish uchun mo‘ljallangan kichik xrestomatiya hisoblangan). Unda Firdavsiy, Nizomiy, Sa’diy, Jomiy asarlaridan olingan hikoya, g‘azal va masallar bilan bir qatorda, rus yozuvchilarining asarlaridan tarjima qilingan hikoya va masallar ham berilgan. Jumladan, I.A.Krilovning “Maymun va ko‘zoynak”, “Qarg‘a va tulki”, L.N.Tolstoyning bolalar uchun yozilgan “Bobo va nabira”, “Ikki o‘rtoq”, “Petr Birinchi” kabi hikoyalari kiritilganki, buni shu davrda bolalar katta qiziqish bilan o‘qiganlar. Muallif har bir hikoya oxiriga mazmunli xulosalar bera olgan, asarlar tarjimasida ham o‘ziga xos yo‘l tutgan. Ya‘ni jumlalarning soddaligiga, xulosaning mumtoz adabiyotimiz an’analariga muvofiq she‘riy yo‘lda berilishiga e’tibor bergan. Masalan, L.Tolstoyning “Ikki o‘rtoq” hikoyasi tarjimasi fikrimizning to‘g‘riligini to‘la tasdiqlaydi. Bu hikoya ayni vaqtda bolalar uchun maxsus tuzilgan “Quvnoq bolajon” deb nomlangan ertak kitobga “Ayiq nima dedi?” sarlavhasi bilan kiritildi. Uning ovozlashtirilgan shaklini bolalar **adabiyoti.uz** saytida tinglashingiz mumkin.

“Ikki o‘rtoq o‘rmonda o‘tib ketar edi. To‘satdan oldilaridan bir ayiq chiqib, ularga hamla qildi. Ularning biri tezlik bilan yashirindi. Ammo ikkinchisi ojizlik qildi. Qochishga ulgurolmay, yerga yiqilib, o‘zini o‘likka o‘xshatib harakatsiz yotdi. Ayiq uning oldiga kelib, hamma joyini iskab ko‘rdi va o‘lik gumon qilib qaytib ketdi. Ayiq ketgandan keyin yashiringan tashqari chiqdi va kulimsirab o‘rtog‘idan so‘radi: “Ey do‘stim, ayiq sening qulog‘ingga nima dedi?”

L.Tolstoy o‘z hikoyasini “U menga xavf va qiyinchilik vaqtlarida o‘z o‘rtog‘ini tashlab ketgan kishilar eng yomon odamdurlar” deb xulosalaydi. Shakuriy boshqacha yo‘l tutdi: u Sa’diyning misralari bilan yakunlashni ma’qul ko‘rdi:

Do‘st mashmor, on ki dar ne’mat zanad
Lofi yoriyu barodar xondagi.
Do‘st on boshad, ki girad dasti do‘st
Dar pareshonholiyu, darmondagi.

Ya‘ni dasturxon ustida do‘stlik va birodarlikdan lof urgan kishini do‘st sanama. Parishon va nochor qolganda do‘stiga qo‘ldosh bo‘lgan kishigina do‘st bo‘ladi [3. B. 17–19].

Aslida Tolstoy xulosasi berilsa ham darslik yutqazmas edi. Ammo Shakuriy xulosani yumshoqroq qilib, ya‘ni eng yomon odamdur degan keskin fikrni do‘st sanama degan shaklda bayon etadi. Bu bilan bola tarbiyasida so‘zning ahamiyatini oshiradi.

Shakuriy ijodiy pedagogik faoliyatiga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, Abduqodir Shakuriy birinchilardan bo‘lib maktabda kichik yoshdagi o‘g‘il bola va qiz bolalarni birga o‘qitish metodini joriy qilgan, uning tashabbusi bilan Samarqand maktablariga mehnat va musiqa darslari kiritilgani, o‘z o‘quvchilarini qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikka oid ishlar bilan tanishtirishdan tashqari, muqovachilik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o‘rgatishi va bu mashg‘ulotlar uchun maktab programmasidan alohida soatlar ham ajratgan, kattalar uchun kechki maktablar tashkil qilgan [3. B. 21–30].

Milliy uyg‘onish davri pedagogikasini chuqur o‘rgangan Ulug‘bek Dolimov “Turon” jamiyati qoshidagi “Maktab kutubxonasi” nashriyotida A.Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” (keyingi nashrlari), Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy” (keyingi nashrlari), Rustambek Yusufbekhoji o‘g‘lining “Ta’limi av-

val”, “Ta’limi soniy”, Mulla Ahmadxo‘ja eshon ibn Abdumo‘minxo‘ja eshon o‘g‘lining “Nasoyihul – atfol” (ikkinchi juz’) kabi yigirmadan ortiq darslik va o‘quv qo‘llanmalari nashr etilgani haqida ma’lumot bergan [4. B. 57].

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, bolalar uchun tanlab olingan asarlar yoxud darslik uchun maxsus yozilgan asarlarning tarbiyaviy ko‘rsatmalari Munavvar qori ishlab chiqqan yo‘riqnoma va nizom bandlariga muvofiq keladi. Masalan, Munavvarqori jadid maktablari uchun ishlab chiqqan maxsus 16 banddan iborat yo‘riqnomaning 10-bandida shunday deyilgan: “Muallim bolalar tarbiyasi va axloqiga alohida e’tibor berishi kerak”. 12-bandida: “Maktabda o‘qitiladigan darslar, qilinadigan nasihatlar diyonat, axloq, insoniyat doirasida bo‘lishi kerak”. Usuli jadid maktabdorlari ham ma’lum qonun-qoida doirasida harakat qilishlari uchun talabalariga bo‘ysunishi shart bo‘lgan 11 moddadan iborat “Nizomnoma” bandlari shu davr maktab darsliklaridagi adabiy matnlar g‘oyasini o‘zida aks ettiradi [4. B. 97-98]. Bu borada Munavvarqorining “Adib us soniy”, Avloniyining “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitoblari, Hamzaning “Yengil adabiyot” “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” kabi pedagogik risolalarini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Shunday qilib usuli jadid maktablarida Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Ali Asqar Bayramali Kalininning “Muallimi soniy”, Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy” Abdulla Avloniyning “Ikkinchi muallim”, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar”, Mo‘minjon Muhammadjon o‘g‘lining “Nasoyih ul atfol” (“Bolalarga nasihatlar”) kitobining birinchi juz’i (bu kitobda 36 soatlik dars uchun pand nasihat mavzusida 36 matn berilgan), Mulla Ahmadxo‘ja Eshonning “Nasoyih ul atfol” kitobining II juz’i asosiy darslik sifatida o‘qitilgan. Munavvarqorining sa’y-harakati bilan Kamiy, Avloniy, Tavallo, Sidqiy, Miskin, Fikriy, Hamza kabi zamonaviy shoirlarning sara she’rlari jamlangan “Sabzavor” she’riy to‘plamidan o‘qitishda foydalanilgan [4. B. 98–99].

Yuqorida sanab o‘tilgan asarlarga tanlangan matnlar didaktik xususiyatlari bilan umumiylashadi. Didaktik adabiyotda davrning axloqiy ta’limiy qarashlari o‘z ifodasini topadi. Ayniqsa, bolalarga bag‘ishlangan asarlarda didaktik xususiyatlar ancha bo‘rtiq holda namoyon bo‘ladi. Shuni ham aytish lozimki, XX asr boshlari bolalar she‘riyati, nasri (hikoyatlar, masallar, ibrat va pandlar)ning mavzu ko‘lami nisbatan cheklanganligini kuzatish mumkin. Maktab mavzusi (“Yengil adabiyot”ning 6–13-darslaridagi she‘rlar), ilm-ma’rifatga targ‘ib (“Yengil adabiyot” 15-36-darslar) axloq-odob, vatanparvarlik mavzusidagi (“Turkiy Guliston yoxud axloq”, “Adibus-soniy”), tarbiyaviy mohiyat kasb etadigan majoziy xarakterdagi asarlardan iborat edi.

Shuningdek, bu davr bolalar adabiyotiga ajratilgan asarlar g‘oyasida millat bolalariga xitob, ilm olishga da’vat, jaholatning zarari, ota-onaga munosib farzand bo‘lish, Vatanga muhabbat, axloq va tarbiya kabi umumiy didaktik masalalar yetakchilik qilgan bo‘lsa, Hamzaning bolalar uchun maxsus yozilgan “Mevalar mojarosi” nomi bilan bog‘liq kichik she‘rlar turkumida obrazlarning o‘zini namoyon etishi, tasvirda bayonga yo‘l qo‘yilmagani, bu esa asarda hikoyachining emas, qahramonning tasvirda asosiy o‘ringa chiqishi, natijada voqelikning jonlanishi kabi badiiylikning muhim shartlari amalga oshadiki, bu bolalar she‘riyati yangi qirralari bilan o‘zgarishga yuz tutganini ko‘rsatar edi.

Hamzaning ilm-ma’rifat, maktab haqidagi she‘rlari, masallari tahlilga tortilgani holda “Mevalar mojarosi” turkumi mustaqillik davrida yaratilgan bolalar adabiyotiga oid darslik va qo‘llanmalarda tilga olinmagan. Hamzaning “Tanlangan asarlari” II tomida berilgan izohda shunday yozilgan: “Sanasi noma’lum ushbu she‘r qo‘lyozmasi H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti Hamza arxivida (inv. № 115) saqlanadi. Katak daftar varaqlariga arab grafikasida qora qalam bilan yozilgan. Avtografga sarlavha qo‘yilmagan. She‘r “Tanlangan asarlar” (1949, 1979) da, “Asarlar” (1969)ning I tomida va mukammal asarlar to‘plamining II tomida nashr qilingan. Nashrda qo‘lyozma asosiy matn qilib olindi” [5. B. 527], – deb yozilgan. ziyouz.com kutubxonasi saytida mavjud bo‘lgan Hamza “Tanlangan asarlar”ining 1-tomida bu turkum yozilgan sana 1914 deb ko‘rsatilgan [6. B. 36]. Nazarimizda, Hamza ushbu she‘rni maktab o‘quvchilari uchun darsliklar yaratgan vaqtlarida yozgan. Chunki “Yengil adabiyot” tarkibidagi she‘rlarning qurilishi “Mevalar mojarosi”dagi she‘rlarga o‘xshaydi. “Mevalar mojarosi” kabi asarlar bolalarning tafakkurini kengaytirish va tasavvurini boyitishda muhim ahamiyatga egadir.

Mevalar orasidagi munozaralar xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyotimizning sara asarlarida uchraydi. Adabiyotshunos N.Rahmonov uning dastlabki ildizlari miflar bilan bog‘liqligini ta’kidlab o‘tgan [7. B. 257]. Hamza bu munozarani bolalar tushuncha va anglamlariga mos tarzda yozgani uning pedagogik mahoratli ulkan so‘z ustasi ekanini bildiradi. O‘rik bilan boshlangan “Mevalar mojarosi” mavsumiy mevalarning har turli jihatlarini o‘quvchiga yetkazishni nazarda tutgan. *“O‘ruk o‘rnudan turub, Rangini sarg‘ayturub, Keldi tutni boshiga, Shovqin solib, tik turub”* [5. B. 254].

Misralarda takrorlangan “turub ma’noning turlanishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, o‘rikning jonlantirilishi, tutning boshiga shovqin solib kelish o‘rinlari o‘zgacha manzara hosil qilib o‘quvchini o‘ziga rom etadi.

Dedi: “Ey tut taltayib,
Dema har so‘z yalpayib,
Boshginangga bir uray,
Yerda qolgin shalpayib [5. B. 254].

Tutga do‘q urish ohangiga mos ravishda uyg‘unlashib kelgan “taltayib”, “yalpayib”, “shalpayib” so‘zlari tutning shu paytdagi fe’l-atvorini aks ettirgan. Ayniqsa, *“Boshginangga bir uray, yerda qolgin shalpayib”* deyilgandagi holat bola ko‘z o‘ngida muhrlanib qoladi. Hamza ilg‘or pedagog sifatida bolaga sirtdan ta’sir emas, ichdan ta’sir qilish ma’nosida obrazlarning o‘zini jonlantirgan, ularga ma’no yuklagan.

Seni ko‘p yegan kishi,
Badan qashimoq ishi,
Ortuqchadur ustiga
Yurakburuq tashvishi [5. B. 254].

Muallif tutni ko‘p yeganda yuz beradigan badan qichishishi, yurakburuq bo‘lishini ham misralar orasiga joylaydiki, fanlar orasidagi integratsiya masalasi Hamzaning ham diqqat markazida turgani ayon bo‘ladi.

Ore, man sandan keyin,
Sandan yuz hissa shirin,
Aytub ado qilayin,
Qaysi husnumni birin [5. B. 254].

Munozara shartiga ko‘ra so‘z olgan obraz avval raqib etib tanlangan obrazni “do‘pposlab” bo‘lgach, o‘zini tavsif qilishga o‘tadi. Shuning uchun o‘rik tutdan yuz hissa shirinligini aytib, husni bilan maqtanishga o‘tadi. Bolalar uchun obrazlar o‘rtasidagi qiyos asarni tez anglab olishlarida katta o‘rin tutadi. Shuning uchun qadimdan munozara tipidagi asarlarga qiziqish katta bo‘lgan.

O‘zum ming dardga davo,
Qurutsa andan bajo,
Hatto mag‘zimni olub,
Solgay qandolat aro [5. B.254].

O‘rik ming dardga davo ekanligini, qandolatdagi muhim ahamiyatini bayon etgach*: “Muxtasar aylay so‘zum, Meva ichra bir o‘zum, Bog‘ ichini yorutar, Oppoq, oydindak yuzum*” [5. B. 254.], – deya suhbatga yakun yasaydi. Mevalar mojarosi shu bilan tugamaydi. Aks holda munozara sharti bajarilmagan bo‘ladi. Chunki bahs bir taraflama bo‘lmaydi. Shuning uchun bahsga boshqa mevalar ham aralashadi. Chunonchi, *“Gilos haddan oshiqib, Xafalikdan toshiqib, Keldi o‘ruk boshiga, Musht ko‘tarib shoshiqib”* [5. B. 255] kelishi mojaroning davom etishiga ishora qiladi.

Tomonlar bahsda yutishi uchun tezkorlik, hozirjavoblik juda muhim. Bunday o‘rinlarda voqea-hodisalar keskin tus oladi, ishtirokchilarning xotirjam bahs olib borishiga chek qo‘yadi. Bu holat bolalar o‘yinlaridagi vaziyatlarda ham yuz beradi. Demak, bolalar ishtirokchilarning kayfiyatiga tez moslashadi. Shuning uchun gilosning haddan oshishi, o‘rikning boshiga “*Musht ko‘tarib toshiqib”* kelishini o‘quvchi tabiiy qabul qiladi.

Ey o‘ruk, san so‘zlama,
Maqtanmoqni ko‘zlama!
Yonboshingga bir tepay,
Bog‘ga hargiz yuzlama [5. B.254].

Gilos o‘rikning maqtanishiga e’tiroz bildiradi. Uning e’tirozi shunchalar kuchliki, *“Yonboshingga bir tepay, Bog‘ga hargiz yuzlama”* deyish darajasiga boradi. Mana shu misralardagi so‘zlashuv uslubi asar dramatizmini oshiradi. Shundan so‘ng o‘quvchi gilosning o‘rikni kamsitishga tayyorligini his qiladi. Kutilganidek, “*G‘o‘rang qursun kech bitar, Egan kishi ich ketar,*

Pishkoning shalpaytirib, Qurug‘ingdan bod etar” [5. B. 255] degan ta’nalar yog‘ila boshlaydi. Mana shu ta’nalar o‘rinli ekanini bola sezib turadi. Shu tariqa har bir mevani istemol qilishda me’yorga amal qilish lozimligi ham uqtirib boriladi.

Munozaraning o‘zini sifatlash, ta’riflash qismida gilosning o‘ziga xos sifatlari bayon etiladi: *“Bilursan otim gilos, Suyar meni omu xos. Mani ko‘rgan kishilar, O‘zga meva xohlamas”* [5. B. 255]. Shu tariqa gilosning “asaldan shirinligi”, azaldan “ming kasal”ga dori ekanligi ham ta’rifdan chetda qolmaydi. Ammo gilos ancha kamtarin, u o‘zining “haddini biladi”. Shuning uchun*: “Kaltaroq qilay so‘zim, Maqtasam arzir o‘zim. Bog‘ga kirgan ko‘ziga, Yoqutdek yonar yuzim*” [5. B. 255], – deya bahsdan chetlashadi. Hamza bahsda ishtirok etgan oluchaning “gezorib”, “Qonlar tomib, qizarib” kelishini mevaning rangi moslaydi. Boshdanoq mevalar rangining tasvirlanishi o‘quvchilarda ularning ta’mi bilan bog‘liq hislarini ham uyg‘otadi. Shuning uchun “Ey gilos, lof urmagil, Achchig‘im kelturmagil! Tumshug‘ingga bir solay, So‘ngra yig‘lab yurmagil” [5. B. 256.], – degan misralarni to‘g‘ri qabul qiladi.

Munozara qoidasiga ko‘ra qarshi tomonning illatlari ham bir-bir bayon etilishi lozim. Bunga olucha ham alohida e’tibor qaratgan*: “Maza yo‘q, hukming turush, Chun o‘larsan yo‘q qurush. Sani eganlar bo‘lur, Qo‘nich bezgak, ich burush*” [5. B.256.]. O‘quvchi mojaro orqali yana bir mevaning “illati”dan xabar topadi. Bu esa bolalarda nafs tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Hamza xalq tabobatini yaxshi bilgan mutaxassis sifatida oluchaning ishtahani ochuvchi, yurakda paydo bo‘lgan qurtni davolovchi dori sifatidagi xislatini ham bayon etadi va nihoyat bolalarga ma’qul bo‘lgan mavzu bilan yakunlaydi: *“Maqtasam bir yil o‘tar, Bog‘bon ho‘llikda sotar. Ortganimni qurutib, Qand bila qiyom etar...”* [5. B. 256].

Kuzatilsa, mojaro ishtirokchilari bo‘lgan mevalar boshidanoq bir-biriga do‘q-po‘pisa qilishadi. Bu holat bolalar tabiatiga begona bo‘lmaganidek, turkum sarlavhasini ham asoslashga xizmat qilgan. O‘rik tutning boshiga “*Shovqin solib, tik turub” kelsa, gilos “musht ko‘tarib, shoshiqib*” keladi. Bu bilan kifoyalanmay, o‘rikning yonboshiga bir tepishini ham pisanda qilib o‘tadi. Yoki oluchaning gilosga “Musht ko‘tarib, bezorib” turishida ham ularning tabiati bilan bog‘liq jihatlar borki, muallif bolalar ko‘z o‘ngida jonli tasvirni yuzaga chiqarishga erishgan. Xususan, o‘rik pishganda yerga tap-tap tushishi uning shovqin solishi, gilos va oluchaning musht ko‘tarishlari mevalarning shakli bilan bog‘liq holda tasvirni jonlantiradiki, bu Hamza badiiy mahoratining bir yana bir qirrasi hisoblanadi. Misralarning sodda, tushunarli so‘z va iboralardan tizilgani, hatto biroz qo‘pol ko‘ringan birikmalarning bola kundalik faoliyatidagi voqea-hodisalarga uyg‘un holda muayyan obraz yaratishga xizmat qilgani muallifning *bola tabiatidan, uning ruhiyatidan yaxshigina boxabar ustoz bo‘lganiga ishontiradi.*

Hamza o‘zining zamondoshlaridan farqli tarzda bolalar adabiyotiga oid ko‘plab she’rlarini barmoq tizimida yozgan. Bu bolaning she’rni oson yodlashi, undagi fikrlarni o‘zlashtirishiga qulaylik tug‘dirgan. Hamza o‘z davridagi darsliklar bolalarga ochiq va tushunarli bo‘lishiga harakat qilgan edi. Shu maqsadda 1914–1915-yillar oralig‘ida bolalar uchun “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” kabi bir qator darsliklar yaratgan. Boshlang‘ich ta’limni nazarda tutilgan mazkur darsliklarda muallif she’riy asarlarning o‘quvchiga oson va tushunarli bo‘lishi uchun barmoq tizimini ma’qul ko‘rgan edi. “Yengil adabiyot”dagi 45 saboqqa mo‘ljallangan 1-30-darslaridagi she’rlar barmoq tizimining 7 bo‘g‘inli vaznida (4+3 turoq) yozilgan edi. O‘qish va yodlashga oson bo‘lgani uchun bolalar ijodkorlari hozirda ham 7 bo‘g‘inli she’rlar yozishga ko‘p e’tibor berishadi. 7 bo‘g‘inli misralar ko‘tarinki kayfiyatni ifodalash, harakat tezligini tasvirlashga qulay. Shu ma’noda Hamza “Mevalar mojarosi” turkumiga 7 bo‘g‘inli vaznni tanlaydiki, 4+3 turoq aynan mojaroning tezlashgan o‘rinlariga tabiiylik bag‘ishlagan.

Xulosa

Bolalarga bag‘ishlangan asarlarda bolaning psixologik holatlari ham e’tiborga olinadi. Psixologiyada bolalar rivojlanishida yetakchilik qiladigan taqlidchilik, mustaqillikka intilish, buni psixologlar yarim mustaqillik deb ataydilar, shaxsiy qadr-qimmat, uyat, shubha kabi hissiyotlarning shakllanishi, o‘yinqaroqlikning 5–7 yoshli bolalarga xos bo‘lishi, maktab davriga

kelib esa yuqoridagi omillar bilan birga ularda ko‘zlangan maqsadga sari intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik singari xususiyatlar paydo bo‘lishi kabi bir qator psixologik va fiziologik jihatlar borki, buni ijodkor albatta inobatga olishi zarur. Shu ma’noda dastlabki pedagogik darsliklarda bu xususiyatlar qamrab olingan edi. Garchi dastlabki alifbolar va darsliklarda mumtoz an’analarga xos didaktik ruh saqlangan bo‘lsa ham (bu o‘z davrida bolalar adabiyotining shakllanishi borasidagi jiddiy olg‘a siljish edi), bolalar olamini tushuna borish, badiiy matn orqali tafakkurni va bola iqtidorni to‘g‘ri yo‘nalishga sola bilish ma’nosida milliy pedagoglarimizning sa’y-harakatlari tahsinga loyiq edi. Milliy pedagogikada darsliklarning yangilanishi bolalar adabiyotining rivojlanishi va taraqqiyotiga zamin hozirladi.

Adabiyotlar:

1. *Абдуллаев Й.* Эски мактабда хат-саводга ўргатиш. – Тошкент: “Ўрта ва олий мактаб”, 1960. – 152 б.

2. *Баракаев Р.* Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари // “Жадид маърифатпарварларининг миллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг Миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти” мавзуидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2016. В. 145–150.

3. *Фаттаев М.* Атоқли педагогларимиз. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 52 б.

4. *Долимов У.* Туркистонда жадид мактаблари. – Тошкент: Университет, 2006. – 128 б.

5. *Ниёзий Ҳ.Ҳ.* Тўла асарлар тўплами. Y томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1988. – 552 б.

6. *Ниёзий Ҳ.Ҳ.* Танланган асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1958. (хттпс://www.зиёуз.сом/).

7. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари 2-жилд (XIY–XY асрнинг бошлари). / Тузувчи, изоҳ ва шарҳлар муаллифи: Н.Раҳмонов. – Тошкент: Фан, 2007. – 320 б.

8. *Долимов У.* Миллий уйғониш педагогикаси. – Тошкент: Ношир, 2012. – 384 б.

9. *Авлоний А.* Танланган асарлар. II жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 304 б.

10. *Абдурашидхонов М.* Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2003. – 304 б.

THE ROLE OF CHILDREN’S LITERATURE IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL RENAISSANCE PEDAGOGY

Khurshida K. Khamrakulova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 5(73). 76-84.

[1]Tashkent University of Applied Sciences, Tashkent, 100081, str. Gavhar, 1 (Uzbekistan). E-mail: info@utas.uz; www.utas.uz

Keywords: children’s literature, national pedagogy, Jadid literature, textbook, alphabet, teaching system, didactic work, story, literary text, “Discussion of fruits”.

In the article, the influence of national renaissance pedagogy on the formation of Uzbek children’s literature as a science, the introduction of works related to children’s literature in the first alphabets and textbooks created at the beginning of the last century, despite the fact that most of the first literary texts were translations, ultimately children’s education in small independent literary texts created by our national pedagogues and didactic materials related to education are widely available.

More than a century has passed since children’s literature was formed as a science and took place in school textbooks. If you look closely, you can see that didactics has become the main direction in children’s literature. Of course, the priority of didactics is natural for children’s literature, which is nourished by the great works of Eastern and national literature. This became the main criterion in the coverage of children’s literature, especially in the pedagogy of the national renaissance period.

Because the texts in children’s literature are appropriate for the age of the child, easily assimilated, the meaning in the text layer is bulging, there is a little ironic spirit in the development of the plot,

this spirit gives laughter to the work or serves to demonstrate the work vividly in front of the child's eyes (finally, irony is the conclusion drawn from the text should be confirmed), the comparison of images is left to the discretion of the child, the drawn conclusion corresponds to the reality in the mind, which allowed to enrich their imagination and expand their thinking. Of course, the requirements for children's literature are embedded in the essence of a small text. Modern pedagogues, who deeply understood this, paid attention to the inclusion of creative texts in their first textbooks.

In the works dedicated to children, the child's psychological conditions are also taken into account. In psychology, imitation leading children's development, striving for independence, psychologists call this semi-independence, the formation of feelings such as personal dignity, shame, doubt, playfulness characteristic of 5-7-year-old children, and by the time of school age, together with the above factors, the goal set in them There are a number of psychological and physiological aspects, such as the appearance of characteristics such as striving for success, perseverance and perseverance, which the creator must take into account. In this sense, these features were covered in the first pedagogical textbooks. Although the early alphabets and textbooks preserved the didactic spirit characteristic of classical traditions (this was a serious advance in the formation of children's literature in its time), the efforts of our national pedagogues in the sense of being able to understand the children's world and direct the thinking and talent of the child in the right direction through literary text are commendable deserved. The renewal of textbooks in national pedagogy laid the groundwork for the development and progress of children's literature.

References:

1. Abdullayev, Y. (1960). Eski maktabda xat-savodga o‘rgatish. [Teaching literacy in the old school)]. Tashkent: O‘rta va oliy maktab.

2. Barakayev, R. (2016). Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari [Ideological foundations of jadid enlightenment movement].In: ‘Jadid ma'rifatparvarlarining milliy ta'lim, matbuot, adabiyot va san'atni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi va uning Milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati’ [‘Contribution of jadid enlighteners to the development of national education, press, literature and art and its importance in the promotion of the national idea’]. Materials of the republican scientific and practical conference on the topic. Tashkent: Tashkent islom universiteti. Pp. 145-150.

3. Dolimov, U. (2006). Turkistonda jadid maktablari [Jadid schools in Turkestan]. Tashkent: Universitet.

4. Fattayev, M. (1988). Atoqli pedagoglarimiz [Our famous pedagogues]. Tashkent: O‘qituvchi.

5.Niyoziy, H.H. (1988) To‘la asarlar to‘plami [Complete collection of works]. In 5 volumes. Vol. 2. Tashkent: Fan.

6. Niyoziy, H.H. (1958) Tanlangan asarlar [Selected works]. Tashkent: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti.

7. Rahmonov, N. (com.) (2007) O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari (XIV-XV asrning boshlari) [Samples of Uzbek classical literature early (XIV-XV centuries)]. Vol. I2. Tashkent: Fan.

8. Dolimov, U. (2012) Milliy uyg‘onish pedagogikasi [Pedagogy of national revival]. Tashkent: Noshir.

9. Avloniy, A. (1998) Tanlangan asarlar [Selected works]. In 2 volumes. Vol. 2. Tashkent: Ma'naviyat.

10. Abdurashidxonov, M. (2003) Tanlangan asarlar [Selected works]. Tashkent: Ma'naviyat, 2003.

Muallif haqida ma'lumot:

XAMRAKULOVA Xurshida Kuvvatovna – filologiya fanlari doktori, Toshkent amaliy fanlar universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, **E-mail:** xamrakulova.xurshida@mail.ru